

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Navoiy viloyati, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 774,7 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2 602,0 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 142,3 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 30,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (724,4 mlrd so'm), Qiziltepa (504,5 mlrd so'm), Navbahor (395,5 mlrd so'm), Karmana (327,1 mlrd so'm), Uchquduq (193,2 mlrd so'm) va Konimex (178,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (30,4 mlrd so'm), Zarafshon shahri (22,3 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (18,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati %
Navoiy viloyati	2 774,7	104,4
Navoiy shahri	18,1	99,0
Zarafshon shahri	22,3	97,7
G'ozg'on shahri	30,4	102,5
tumanlari		
Konimex tumani	178,3	105,6
Qiziltepa tumani	504,5	106,2
Navbahor tumani	395,5	105,4
Karmana tumani	327,1	102,0
Nurota tumani	216,2	103,2
Tomdi tumani	164,7	106,4
Uchquduq tumani	193,2	105,6
Xatirchi tumani	724,4	103,4

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (106,4 %), Qiziltepa (106,2 %), Konimex (105,6 %), Uchquduq (105,6 %) va Navbahor (105,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Xatirchi (103,4 %), Nurota (103,2 %), G'ozg'on (102,5 %), Karmana (102,0 %), Zarafshon (97,7 %), va Navoiy (99,0 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 557,5 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 99,8 mlrd so'mni (105,0 %), chorvachilik mahsulotlari 2 457,7 mlrd so'mni (104,3 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (622,3 mlrd so'm), Qiziltepa (462,3 mlrd so'm), Navbahor (373,9 mlrd so'm) va Karmana (305,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (30,0 mlrd so'm), Zarafshon shahri (22,3 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (14,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (106,2 %), Qiziltepa (106,0 %), Konimex (105,4 %) va Uchquduq (105,4 %) tumanlarida qayd etildi. Karmana (102,0 %), Navoiy shahri (98,2 %) va Zarafshon (98,1 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,3 % i fermer xo'jaliklariga, 8,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (601,1 mlrd so'm), Qiziltepa (442,9 mlrd so'm), Navbahor (358,1 mlrd so'm), Karmana (274,6 mlrd so'm) va Nurota (203,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (30,0 mlrd so'm), Zarafshon shahri (22,3 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (7,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (106,2 %), Navbahor (106,2 %), Uchquduq (105,4 %), Qiziltepa (105,3 %) tumanlarida qayd etildi. G'ozg'on shahri (102,5 %) Karmana (102,0 %), Navoiy shahri (98,5 %) va Zarafshon (98,1 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 32,6 ming tonna go'sht, 92,1 ming tonna sut, 91,1 mln dona tuxum, 182,6 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 1,5 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, sog'ib olingan sut – 104,9 % ni, olingan tuxum – 102,4 % ni, olingan qorako'l teri – 102,1 % ni hamda ovlangan baliqlar – 107,5 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 9,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 82,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,9 % i fermer xo'jaliklari, 88,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna.	32,6	104,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,9	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	26,9	102,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,8	113,7
Sut, ming tonna.	92,1	104,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	8,2	115,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	81,2	103,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7	114,3
Tuxum, mln. dona.	91,1	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	12,0	114,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	48,4	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,7	101,1
Qorako'l teri, ming dona	182,6	102,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,9	107,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	152,3	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,4	109,8
Baliq, ming tonna	1,5	107,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,5	103,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,1	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,9	110,2

Shu bilan birga, olingan tuxumning 13,2 % i fermer xo'jaliklariga, 53,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 33,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 10,3 % i fermer xo'jaliklariga, 83,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 31,3 % i fermer xo'jaliklariga, 4,1% i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 64,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Navoiy viloyati	32 573	92 135	91 121
Navoiy shahri	123	179	347
Zarafshon shahri	318	594	748
G'ozg'on shahri	436	935	395
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	2 705	2 772	1 336
Qiziltepa tumani	4 845	24 814	26 277
Navbahor tumani	4 173	18 700	10 106
Karmana tumani	3 582	10 152	24 408
Nurota tumani	3 100	4 369	3 607
Tomdi tumani	2 699	1 073	335
Uchquduq tumani	3 198	1 311	326
Xatirchi tumani	7 393	27 237	23 187

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Karmana (30 573,7 mln so'm), Xatirchi (21 222,1 mln so'm), Qiziltepa (19 347,9 mln so'm), Navbahor (15 741,8 mln so'm) va Navoiy (6750,4 mln so'm) shaharlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Konimex (4 156,7 mln so'm), Nurota (1 968,8 mln so'm), G'ozg'on (9,9 mln so'm) va Zarafshon shaharini (0,7 mln so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Konimex (2,4b %), Qiziltepa (125,2 %), Nurota (103,1 %), va G'ozg'on (103,1%) shaharlarida qayd etildi. Xatirchi (102,6 %), Karmana (101,6 %), Zarafshon shahri (100,0 %), Navoiy shahri (97,8 %) va Navbahor (86,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	4 206	106,5
Navoiy shahri	487	97,8
Zarafshon shahri	-	-
G'ozg'on shahri	-	-
<i>tumanlari</i>		
Konimex tumani	226	4,2 b
Qiziltepa tumani	523	180,3
Navbahor tumani	593	75,3
Karmana tumani	1900	101,3
Nurota tumani	10	107,4
Tomdi tumani	-	-
Uchquduq tumani	-	-
Xatirchi tumani	408	101,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Karmana tumani (45,2 %), Navbahor (14,1 %), Qiziltepa (13,8 %), Navoiy shahri (11,6 %), va Xatirchi (9,7 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Konimex (5,4 %) va Nurota tumanlarida (0,2 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Konimex (4,2b %), Qiziltepa (180,3 %), Nurota (107,4 %), Xatirchi (101,7 %), va Karmana tumanlarida (101,3 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 547,3 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 2,0 % ga ko'p), sigirlar 218,2 ming boshga (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 477,7 ming boshga (1,4 % ga ko'p), parrandalar 3 887,8 ming boshga (3,5 % ga ko'p) yetdi.



2025-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	547,3	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	49,7	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	481,7	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,9	102,6
shundan sigirlar	218,2	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	17,3	108,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	196,5	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,4	107,3
Qo'y va echkilar	2477,7	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	685,4	101,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1402,8	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	389,5	103,5
Otlar	22,7	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,8	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10,9	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,0	106,7
Parrandalar	3 887,8	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	468,4	104,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2090,4	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1329,0	107,9

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo'jaliklariga, 90,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 27,7 % i fermer xo'jaliklariga, 56,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 12,0 % i fermer xo'jaliklariga, 53,8 % i dehqon va

tomorqa xo'jaliklariga, 34,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Navoiy viloyati	547,3	2 477,7	3 887,8
Navoiy shahri	1,1	5,2	46,5
Zarafshon shahri	1,3	8,8	37,0
G'ozg'on shahri	2,5	29,8	9,5
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	26,1	596,0	211,0
Qiziltepa tumani	153,2	228,7	956,1
Navbahor tumani	83,6	285,8	456,0
Karmana tumani	64,4	130,5	937,9
Nurota tumani	48,4	438,1	146,8
Tomdi tumani	6,1	368,6	57,8
Uchquduq tumani	5,3	134,1	20,6
Xatirchi tumani	154,2	252,2	1 008,6

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya suti bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Tuyg'unov
79 223-23-40 (8610)

Manzil:
